

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI



"TASDIQLAYMAN"

Samarqand iqtisodiyot va
servis instituti rektori
M.E. Po'latov

2024 yil " " _____

Ro'yxatga olindi:

2024 yil "18" "avgust"

BOSHQARUV HISOBI 2

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi : 400 000 – Bisnes, boshqaruv va huquq

Ta'lim sohasi: 410 000 – Bisnes va boshqaruv

Magistratura

mutaxassisligi: 70410202 - «Audit» (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

SAMARQAND – 2024

Fan/modul kodi MANACC6		O'quv yili 2024 - 2025	Semestr 1	Kreditlar 5
Fan/modul turi Tanlov		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Boshqaruv hisobi 2	60	90	150
2	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Xalqaro tajribalarda buxgalteriya hisobi tizimi moliyaviy buxgalteriya hisobi (financial accounting) va "Boshqaruv hisobi (management accounting) kabi tarkibiy qismlardan tashkil topgan. Moliyaviy buxgalteriya hisobi bu asosan tashqi axborot foydalanuvchilarga moliyaviy hisobot ko'rinishida axborotlarni taqdim qilish bo'lsa, menejmentlik buxgalteriya hisobi esa ichki axborot foydalanuvchilar, ya'ni menejerlarga qarorlar qabul qilishlari uchun foydali axborotlarni yetkazib berish quyitizimiga aytiladi.</p> <p>Menejment qarorlarining sifati ko'p jihatdan menejerlarni o'z vaqtida, sifatli, obyektiv va tezkor axborotlar bilan ta'min etish darajasiga bog'liq bo'ladi. Bu masalani hal etishda menejmentlik buxgalteriya hisobi muhim rol o'ynaydi. Bu o'z navbatida ushbu soha mutaxassislari oldiga yangicha vazifalar qo'ymoqda. Shu bois, ular menejmentlik buxgalteriya hisobi masalalarini mutaxassislikka oid bevosita fan sifatida mukammal bilishlari talab etiladi. Menejmentlik buxgalteriya hisobi fani asosiy mutaxassislik fan bo'lganligi uchun uni ikkita bir-biri bilan uzviy bo'lgan "Boshqaruv hisobi 1" va "Boshqaruv hisobi 2" ga bo'lib o'rganishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.</p> <p>Mazkur fanning asosiy maqsadi bo'lg'usi mutaxassislarda menejmentlik buxgalteriya hisobining konsepsiyasi bilan yaqindan tanishtirish, menejerlarni qabul qilayotgan qarorlarini asoslash maqsadida korxona xarajatlari, budjetlari, baholarini belgilash va korxonaning kelgusidagi rivojlantirish yo'nalishlarini belgilab olish bo'yicha obyektiv, sifatli va tezkor axborotlar bilan ta'min etishga doir yunalishiga mos bilim, ko'nikma va malakani shakllantirish hisoblanadi.</p> <p>Fanning asosiy vazifalari talabalarni menejmentlik buxgalteriya hisobi maqsadlarida xarajatlar mohiyati va tasnifi, ustama ishlab chiqarish xarajatlarni hisobga olish hamda mahsulotlar tannarxini kosting qilishning usullari, budjetlashtirish va nazorat, xarajatlarning menejment tahlili, menejment qarorlarini asoslashda xarajatlar to'g'risidagi axborotlardan foydalanish, baholash asoslari bilan tanishtirish, ularda ushbu bilimlar bo'yicha amaliy ko'nikmalarni hosil qilishga qaratilgan.</p> <p>Ushbu fanni chuqur o'rganish orqali talabalar menejment qarorlarini qabul qilishda menejmentlik buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini tayyorlash, taqdim</p>			

qilish va qo'llash bo'yicha zarur bilimlarga ega bo'ladilar.

3

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

**X-BOB. KOMPLEKS ISHLAB CHIQUARISH JARAYONIDA QO'SHMA
VA IKKILAMCHI MAHSULOT TANNARXI**

**10.1-mavzu. Kompleks ishlab chiqarish jarayonida qo'shma va ikkilamchi
mahsulot tushunchasi**

Qo'shma (kompleks) ishlab chiqarish jarayoni tavsifi. Qo'shma ishlab chiqarish jarayoni, qo'shma mahsulot va ikkilamchi mahsulotlarga ta'riflar.

Qo'shma va ikkilamchi mahsulotlar ishlab chiqaradigan sanoat tarmoqlariga: kimyo sanoati, neftni qayta ishlash, tog', sut-un, moy-yog' ishlab chiqarish sanoati korxonalaridan misollar.

Masalan, sut mahsulotini bitta texnologik jarayonda qayta ishlash natijasida bir qancha mahsulotlar, jumladan sut, qatiq, qaymoq, pishloq, chakka, ayron, qurt va boshqa mahsulotlarni birin-ketin olinishi.

Qo'shma ishlab chiqirishning daraxt ko'rinishidagi illyustrsiyasi. Uning izohi.

Qo'shma tannarx, ajralish nuqtasi (split-off point), bo'lingan xarajatlarga ta'riflar va ularni identifikatsiyalash. Ikkilamchi mahsulotlarni chiqindi materiallardan farqli jihatlar.

Mahsulotlarni sof sotish mumkin bo'lgan qiymati.

**10.2-mavzu. Qo'shma mahsulot tannarxini baholash va tannarx
illustratsiyasi**

Qo'shma mahsulotlar buxgalteriya hisobining muhim vazifalari.

Qo'shma mahsulot tannarxini baholashdagi muhim masalalar. Qo'shma mahsulotlar tannarxini hisobga olishda ikkita bosqichda amalga oshirish tartibi.

Mahsulotlar miqdori va tannarxi to'g'risidagi axborotlarni to'plash.

Sotishga tayyor holatga keltirish uchun ajralish nuqtasidan keyin qo'shimcha ishlov berish jarayoni. Ajralish nuqtasidan keyin mahsulotlarni qo'shimcha qayta ishlash jarayonida sarf xarajatlar.

Har bir mahsulotning tannarxni aniqlash uchun qo'shma tannarxni har bir mahsulotga taqsimlashda sabab-oqibat bog'liqligi. Qo'shma tannarxni mahsulot turlariga taqsimlashda qo'llaniladigan umum qabul qilingan metodlar: Natural birliklar asosida taqsimlash; Sotish qiymati asosida taqsimlash; Yalpi fayda asosida taqsimlash; Ajralish nuqtasida sof sotish mumkin bo'lgan qiymati asosida taqsimlash.

Ushbu metodlarning qo'llanilishiga doir amaliy misollar. Ushbu metodlarning afzalliklari va kamchiliklari. Har bir metodni qo'llashning o'ziga xos mezonlari va shart-sharoitlari.

**10.3-mavzu. Yog'-moy mahsulotlari ishlab chiqarishda jarayonli costing
va kompleks ishlab chiqarish**

Yog'-moy sanoati korxonalari faoliyatining tavsifi va milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni. Yog'-moy mahsulotlarining buxgalteriya hisobi obykti sifatidagi tavsifi va tasnifi.

Yog'-moy mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida xom ashyo va

materiallar hisobining xususiyatlari.

Yog'-moy mahsulotlari hisobining ishlab chiqarish jarayonlari bo'yicha jarayonli kostingni tashkil etish.

Yog'-moy mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida yaroqsiz mahsulotlar hisobi metodologiyasini takomillashtirish.

Kompleks ishlab chiqarish jarayonida yog'-moy mahsulotlari tannarxi hisobining xalqaro jihatlar. Korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi hisobi. Umumishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulot tannarxiga olib borish uslubiyoti.

Hisobotlarga ilovalarda yog'-moy mahsulotlariga doir axborotlarni ochib berish tartibi.

10.4-mavzu. Ikkilamchi mahsulotlar hisobi

Ikkilamchi mahsulot, chiqindi mahsulotlar, ikkilamchi mahsulotni sotishdan olingan yalpi daromad, ikkilamchi mahsulotni sotishdan olingan sof daromad va ikkilamchi mahsulotni sotishdan olingan sof daromad tushunchalariga tavsif.

Qo'shma mahsulot va ikkilamchi mahsulot hamda chiqindi mahsulot o'rtasidagi farqlar ularning qiymati bilan belgilanishi.

Ikkilamchi mahsulotning sotishdan olingan daromadlarning ikkita ko'rsatkichi: Ikkilamchi mahsulotni sotishdan olingan yalpi daromad; ikkilamchi mahsulotni sotishdan olingan sof daromad.

Ikkilamchi mahsulotni sotishdan olingan sof daromad qo'shma mahsulotning sotish tannarxi yoki ajralish nuqtasigacha amalga oshirilgan qo'shma tannarxning kamayishiga olib borilishi.

Ikkilamchi mahsulotni hisobga olish usullari: Ikkilamchi mahsulot sotishdan olingan sof daromadni qo'shma mahsulotning sotish tannarxining kamayishiga olib borishi usuli; ikkilamchi mahsulotni sotishdan olingan sof daromadni ajralish nuqtasigacha amalga oshirilgan qo'shma tannarxning kamayishiga olib borish usuli.

Ushbu usullarning qo'llanilishini amaliy misollar hamda amalga oshirilgan hisob-kitob natijalarini buxgalteriya schotlarida aks ettirish tartibi.

10.5-mavzu. Brak mahsulotlar, ularni qayta ishlash va buzilgan mahsulotlar hisobi

Brak mahsulotlar, qayta ishlash va buzilgan mahsulotlar tushunchalariga aniqlashtirishlar.

Brak mahsulotlar hisobini tashkil etish. Uning turlari: normal brak va normal bo'lmagan brak.

Brak mahsulotlarni jarayonli kostingi: o'rtacha solmoqli va FIFO usullari. Brak mahsulotlarni jarayonli kostingda hisobga olishning beshta bosqichi. Brak mahsulotlarga oid buxgalteriya yozuvlari. Brak mahsulotlarni tekshiruvdan o'tkazish nuqtasi. Normal braklarda tannarxni taqsimlash.

Brak mahsulotlarda buyurtmali kosting.

Qayta ishlashda buyurtmali kosting.

Buzilgan mahsulotlarning hisobi. Buzilgan mahsulotlarni tan olish usullari: sotilgan paytida tan olish hamda ishlab chiqarish paytida tan olish.

Brak mahsulotlar, ularni qayta ishlash hamda buzulgan mahsulotlarni hisobga olishga doir amaliy masalalar va ularning illustratsiyasi.

XI-BOB. KONTRIBUTSIYA YONDASHUVI. XARAJATLARNI TO'LIQ TAQSIMLASH (ABSORPTION COSTING) VA O'ZGARUVCHAN XARAJATLAR ASOSIDA (DIRECT OR VARIABLE COSTING) KOSTING USULLARI

11.1-mavzu. Kontributsiya yondashuvi (Sontribution Approach) tushunchasi. Xarajatlarni to'liq taqsimlash asosida kosting (absorption costing) va o'zgaruvchan xarajatlar asosida kosting (direct or variable costing) tizimlarining mohiyati, farqli jihatlari va quvvatlovchi dalillar.

Kontributsiya yondashuvi – bu kontributsiya marjinini hisoblashga asoslangan tizim. Kontributsiya marjiniga ta'rif va uni aniqlashdagi tartib va yondashuvlar. Kontributsiya marjini hisobidan doimiy xarajatlar qoplanilishi. Foyda aniqlash.

Kontributsiya yondashuvi hamda absorption costing tizimlarini solishtirish. Absorption costing yoki xarajatlarni to'liq taqsimlash tizimi. Absorption costing ning ta'rif. Mahsulot tannarxida to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita hamda doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar o'z ifodasini topishi. Absorption costing kompaniyalar tomonidan tashqi moliyaviy hisobotlar uchun mahsulot tannarxi to'g'risida ma'lumotlarni tayyorlashda qo'llanilishi.

Kontributsiya yondashuvida mahsulot tannarxiga faqat o'zgaruvchan xarajatlar olib borilishi. Kontributsiya marjini (marjinal daromad), ya'ni daromad hajmi bilan barcha o'zgaruvchan xarajatlarning farqi hisoblanishi. Absorption costing hamda kontributsiya yondashuvi menejerlarni foydali axborotlar bilan ta'minlashga xizmat qilishi. Boshqaruv maqsadlarida ayrim turdagi qarorlarni qabul qilishda kontributsiya yondashuvida taqdim etilgan axborotlar to'liq taqsimlash yondashuviga nisbatan foydaliroq bo'lishi.

Segmental kontributsiya hisobotlarining bir qancha turlari: Qismlar (bo'limlar) bo'yicha kontributsiya hisobotlari; mahsulot bo'yicha kontributsiya hisobotlari; sotish regionlari bo'yicha kontributsiya hisobotlari. Kontributsiya ko'rsatkichlarini hisoblashning uch bosqichi: ishlab chiqarish kontributsiya marjini; kontributsiya marjini qismlar kontributsiyasi.

Mahsulot bo'yicha kontributsiya hisobotlari va sotish regionlari bo'yicha kontributsiya hisobotlari.

11.2-mavzu. Kontributsiya yondashuvlarining mahsulot tannarxida qo'llanilishi (Variable Costing tizimi). Variable Costing va Absorption Costing illustratsiyasi va solishtirilishi.

Kontributsiya yondashuvining amalda qo'llanilishi mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning Variable Costing tizimida namayon bo'lishi

Variable Costing (yoki ayrim adabiyotlarda Direct Costing) - bu mahsulot ishlab chiqarishda o'zgaruvchan xarajatlarga asoslanadigan kosting tizimi. Ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq xarajatlarga to'g'ridan-to'g'ri material, to'g'ridan-to'g'ri mehnat haqi va ustama ishlab chiqarish xarajatlarning o'zgaruvchan qismi kiritilishi. Adabiyotlarda Variable Costing bilan Absorption Costing o'rtasida muhim farqlarning e'tirof etilishi.

Ushbu farqlarning tavsifi.

Mahsulot tannarxiga olib borilgan xarajatlar tarkibi. Variable Costing va Absorption Costing ning o'rtasidagi farqlarning yuzaga kelishiga sabab xarajatlarning mahsulot ishlab chiqarilishiga bog'liq holda ularning zaxiralanishi ekanligi. Zaxiralanish tushunchasi.

Absorption costing mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlarni, jumladan to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita, o'zgaruvchan va doimiy xarajatlarni qamrab olishi. Ushbu tizimda eng muhim tamoyil xarajatlar ishlab chiqarishga oid bo'lishligi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotdagi axborotlarning turkumi. Variable Costing va Absorption Costing tizimlarida mahsulot tannarxiga olib boriladigan tannarx zarrachalari turli bo'lganligi bois, hisobotda shakllanayotgan axborotlar ham turlicha bo'lishi.

Absorption Costing tizimida hisobotda tannarx axborotlari funksiyalar (faoliyatlar) bo'yicha taqdim etilishi.

Variable Costing tizimida ishlab chiqarish kontributsiyasi, kontributsiya marjini aniqlanishi hamda sof foyda aniqlanishi. Ushbu axborotlarning menejerlar tomonidan foydalanilishi.

Variable Costing va Absorption Costingning qo'llanilishini illustrativ misollar.

Absorption Costingda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot hamda Variable Costingda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot.

Absorption costing va variable costing tizimlarini solishtirish.

Absorption costing va Variable Costingda zaxiralar tannarxi konsepsiyasini amal qilinishini boshlang'ich va oxirgi zaxiralar misolida ko'rib chiqish.

Boshlang'ich va Oxirgi Zaxiralarga kiritilgan Doimiy Ustama Xarajatlari. Absorption Costing va Variable Costing sof daromadlari o'rtasidagi farqlarning sabablari.

Absorption Costing va Variable Costing usullarida moliyaviy natijalar o'rtasidagi farqini aniqlash formulalari.

4-BO'LIM. BUDJETLASHTIRISH VA NAZORAT, QARORLAR QABUL QILISH

XII. BUDJETLASHTIRISH (SMETA TUZISH) VA NAZORAT

12.1-mavzu. Rejalashtirish va budjetlashtirishning mohiyati, ahamiyati va turlari

Rejalashtirish boshqaruvning muhim funksiyalaridan biri ekanligi. Rejalashtirishning boshqaruv hisobi maqsadlarida ta'rifi. Korxonada tuziladigan rejalarning asosiy turlari: Operativ (tezkor) rejalalar; Ma'muriy rejalalar; Strategik rejalalar.

Korxona budjetini rejalashtirish. Fundamental budjet konsepti. Budjetlarning tavsifi. Budjetlarning maqsadi. Budjetlarning funksiyalari. Korxona budjeti va budjetga berilgan ta'riflar. Master budjetlar.

Korxona budjetini rejalashtirish. Bosh budjet. Bosh budjet: Tezkor operativ budjet; Moliyaviy budjet.

Tezkor operativ budjet: sotish budjeti (daromadlar budjeti); ishlab chikarish

budjeti (ishlab chikarish xarajatlarining barcha asosiy elementlari bo'yicha detalli alohida budjetlar bilan birgalikda); TMZlar budjeti; sotish xarajatlari budjeti; boshqaruv xarajatlari budjeti; *moliyaviy natijalar (foyda va zararlar) budjeti;

Moliyaviy budjet: kapital investitsiyalar budjeti; pul mablag'lari budjeti; buxgalteriya balansi budjeti.

Bosh budjet tarkibi va uni tuzish ketma-ketligi.

12.2-mavzu. Korxona faoliyatining alohida ko'rsatkichlari bo'yicha budjetlarni tuzish

Korxona faoliyatining alohida ko'rsatkichlari bo'yicha budjetlarni tuzishning umumiy tavsifi. Alohida budjetlar tavsifi:

Sotish budjeti. Sotish budjeti korxonaning faoliyat turiga, ya'ni ishlab chikarayotgan va sotayotgan mahsuloti (tovari, ish va xizmat) turlariga qarab tuzilishi. Sotish budjetini tuzish.

Ishlab chikarish budjeti. Sotish xajmi chamalangach, unga erishish uchun omborlarda qancha mahsulot borligi, hisobot davri oxirida korxona xavfsizligi ta'minlash uchun qancha mahsulot turishligi hamda yana qancha mahsulot ishlab chikarish lozimligi aniqlanishi. Ishlab chikarish budjeti (ishlab chikarish dasturi) tuzilishi.

Materiallar budjeti. Ishlab chikarilishi lozim bo'lgan maxsulot miqdori aniklangach, uni ishlab chikarish uchun qancha miqdorda materiallar sotib olish va ularni sarflash budjeti tuzilishi. Xom ashyoning mavjud qoldig'i, mahsulot ishlab chikarish uchun material sarflar me'yori, materiallarning ombordagi me'yoriy qoldig'i asosida sotib olinishi lozim bo'lgan materiallar miqdorining aniqlanishi.

Ish vaqt va mehnat xarajatlari budjeti. Ishlab chikariladigan mahsulotlar tannarxiga kiritiladigan mehnat xaqi xarajatlari ishlab chikarilishi rejalashtirilayotgan mahsulot miqdori, bir birlik mahsulot uchun ketadigan vaqt me'yori va unga to'lanadigan mehnat haqi rassenkasi asosida hisoblanishi. Ish vaqt va mehnat xarajatlari tuzilishi.

Ishlab chikarish ustama xarajatlari budjeti. Ishlab chikariladigan mahsulotlar tannarxiga kiritiladigan boshqa ishlab chikarish ustama xarajatlari doimiy (o'zgarmas) xarajatlar bo'lib hisoblanishi. Ishlab chikarish ustama xarajatlari budjeti tuzilishi.

Bir birlik tayyor mahsulot va davr oxiriga mahsulot tannarxi budjeti.

Sotiladigan tayyor mahsulot tannarxi budjetlari tuzilishi.

Sotish va boshqaruv xarajatlari budjeti tuzilishi.

Foyda va zararlar to'g'risida hisobot ko'rsatkichlari budjeti tarkibiy qismlari va tuzilishi.

12.3-mavzu. Korxonalar moliyaviy budjetlarini tuzish

Pul mablag'lari budjeti. Korxonaning yillik pul mablag'lari budjeti choraklar va oylar kesimida tuzilishi. Uni tuzishdagi asoslar. Pul mablag'lari budjeti.

Buxgalteriya balansi budjeti. Korxonaning kelgusi yilga buxgalteriya balansi budjetini tuzishda amal qilinadigan qoidalar. Buxgalteriya balansi budjeti.

Hisobot yilning choraklari kesimida buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bo'yicha tuziladigan haqiqiy budjetlar taxminiy budjetlarning qay darajada asosli tuzilganligiga baho berishga, kelgusi davrlar uchun budjetlarni tuzishda yo'l qo'yilgan kamchiliklarning e'tiborga olinishiga asos bo'lishi.

12.4-mavzu. Standart kosting (Standard costing) tizimi va farqlanishlar tahlili

Budjet bilan standart o'rtasidagi farq. Egiluvchan Budjet tizimi (flexible budgeting system) va Standard cost. Standart kost ta'rifi, afzalliklari va qo'llash imkoniyatlari.

Bir birlikka nisbatan budjetning va hajm ko'rsatkichlarining turli darajalari hamda ishlab chiqarish bo'yicha Standard cost.

Mahsulot birligiga to'g'ri keladigan standart ustama ishlab chiqarish xarajatlarini aniqlash formulasi.

Standard cost nazorat faoliyati: Tannarx nazorati (Sost control); baho (narx)ga oid qarorlar (Pricing decisions); bajarilishlarni baholash (Performance appraisal); tannarxni tasavvur qilish va bilish (Cost awareness); vazifalarni boshqarish (Management by objective).

Standartlarning turlari tavsifi: Ideal standartlar; asosiy standartlar; joriy erishiladigan standartlar.

Standard cost tizimining asosiy faoliyat jabhalari: standartlarning joriy etilishi; haqiqiy tannarxning jamg'arilishi; farqlanishlar tahlili.

12.5-mavzu. Standard cost tizimida farqlanishlar tahlili

Farqlanishlar tahlili bu haqiqiy tannarxni standart tannarxga solishtirishning sistematik jarayoni bo'lib, unda farqlanishlar identifikatsiyalanadi, farqlarning sabab va oqibati interpretatsiyalanadi. noxush farq va xush farqning yuzaga kelishi. Farqlanishlar tahlili: Haqiqiy tannarx bilan standart tannarx o'rtasida farq. Farq yuzaga kelish sabablari.

Noxush farqlarning yuzaga kelish sabablari.

Farqlanishlarni hisoblash tartibi. Izolyatsiyalangan farqlanishlar va hisob-kitoblar.

Materiallar farqi. Materiallar bo'yicha haqiqiy tannarx standart tannarxdan farq qilishi omil: materiallar uchun to'langan narx hamda menejerlar tomonidan qo'llaniladigan materiallarning me'yoriy sarflanishi va haqiqatda foydalanilgan materiallar miqdori o'rtasidagi farq.

Materiallar narxi farqi yuzaga kelishiga sabablar. MNFni aniqlash formulasi. Materiallardan foydalanishdagi farqining yuzaga kelish sabablari. Ushbu omilning ta'sirini aniqlash formulasi.

Materiallarning foydalanishi bo'yicha buxgalteriya yozuvlari.

Amalga oshirilgan hisob-kitob natijalarini illustratsiyada tarzida aks ettirish.

Mehnat farqlanishi. Standart mehnat tannarxi ta'rifi. Mehnat farqining yuzaga kelishining ikkita omil: mehnat stavkasi farqi va mehnat samaradorligi farqi.

Mehnat farqi stavkasini (MFS) hisoblash tartibi va formulasi.

Mehnat samaradorligi farqi ishchilar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish yoki jarayonni yakunlashda to'g'ridan-to'g'ri mehnat soatlari standart

summasidan kam yoki ko'p mehnat qilinganda yuzaga kelishi.

Mehnat samaradorligi farqini aniqlash tartibi va formulasi.

Hisob-kitoblar natijalari asosida Standard Cost tizimida shakllangan axborotlarni umumlashtirish tartibi.

Ustama (UICHX) farqlanishi. Standard cost tizimida buxgalterlar ustama ishlab chiqarish xarajatlarining standart (budjetlashtirilgan) stavkalaridan foydalanish. UICHX standart stavkasini aniqlash tartibi.

Egiluvchan Ustama Ishlab Chiqarish Xarajatlari Budjeti. Ustama farqlanishida ikkita omili: Ustama budjet farqi va Ustama hajm farqi.

Ustama budjet farqi bu ustama servisi qanchalik tejamkorlik asosida xarid qilinganligi (yuz berganligi) va qanchalik darajada samarali foydalanganligini tavsiflashi. Ustama budjet farqini hisoblash.

Ustama hajm farqi joriy qilingan standart ustama taqsimlash stavkasidan boshqa ishlab chiqarish darajasi ishlab chiqarilganda yuz berishi. Ustama hajm farqini aniqlash tartibi.

Mehnat haqi va UICHX bo'yicha ham farqlar tahlili amalga oshirilishi. Barcha omillar ta'sirining umumlashtirish. Chetlanishlar tahlili bo'yicha xulosalar.

XIII-BOB. BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH

13.1. Qarorlar qabul qilish va relevant axborotlar

Qarorlar qabul qilish jarayoni. Qarorlar qabul qilishda axborotlar. Relevant konsepti. Relevant tannarxi va relevant daromadlar. Sifat va miqdor relevant axborotlar. Relevant axborotlarga doir illustratsiyalar.

Imkoniyatlar xarajatlari (Opportunity cost) va autsorsing (Outsourcing).

13.2-mavzu. Ishlab chiqarish zararsizligini tahlil etish. "Tannarx – hajm – foyda" usulining mohiyati va qo'llanilishi

"Tannarx – mahsulot hajmi – foyda" (CVP) tahlilining maqsadi. Bu tahlil sistematik ravishda mahsulot tannarxi, sotishdan olingan daromad (ishlab chiqarish hajmi) va foyda ko'rsatkichlarining bir-biriga asoslanganligini tavsiflashi. Ushbu tahlil qarorlar qabul qilishda foydaligi. CVP tahlilidan zararsizlik nuqtasini aniqlashda foydalanish.

Zararsizlik nuqtasi yoki kritik nuqta (Break-Even Point) tavsifi. Foyda (zarar) bu kontributsiya marjini va doimiy xarajatlar o'rtasidagi farq ekanligi.

Boshqaruv hisobida kritik (zararsizlik) nuqtasini hisoblashning metodlari: matematik (tenglama metodi); kontributsiya marjini metodi; grafik metodi. Ushbu metodlarning qo'llanilishi. Kritik nuqtani hisoblash formulasi.

Kontributsiya marjini tushunchasi va uni aniqlash tartibi. Mahsulot birligiga kontributsiya marjini hisoblash. Kontributsiya marjini orqali kritik nuqtani aniqlash tartibi.

Kritik nuqtani summada hisoblash tartibi.

Grafik usulida faoliyat darajasi (ishlab chiqarish hajmi yoki sotish hajmi) bilan daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi bog'liqlikni to'g'ri chiziqlar orqali aniqlash. Hosil bo'lgan daromad va xarajatlar chizig'ining kesishish nuqtasi kritik nuqta ekanligini diagrammalarda ko'rsatib berish.

CVP tahlili Mo'ljaldagi Foydani (Target Profit) olish uchun zarur bo'lgan faoliyat hajmi, tannarxi va sotish narxi, yoki faoliyatning turli darajalarida foyda va tannarx qanday bo'lishini aniqlashga doir axborotlar bilan ta'min etish.

CVPning har bir komponentining boshqasidan mustaqil holda o'zgarishi natijalarini o'rganish.

Doimiy tannarxda va o'zgaruvchan tannarxda o'zgarishlar. Mo'ljaldagi foyda (Target Profit). Mo'ljaldagi foydada kritik nuqta (summada)

Kombinatsion o'zgarish. Soliqlar ta'siri.

13.3-mavzu. Relevant diapazonda operatsion richag va xavfsizlik marjasi

Operatsion richag (Operation Beyond). Ushbu ko'rsatkichning tavsifi va xarakterli xususiyatlari. Operatsion richag daromadning foizlarda o'zgarishi foydaning foizlarda o'zgarishiga qanday ta'sir ko'rsatishini tavsiflashi. Operatsion richagni aniqlash formulasi.

Xavfsizlik marjini (Margin of Safety Ratio). Xavfsizlik marjini kompaniyaning kritik nuqtaga nisbatan qancha xavfsiz ishlayotganini tavsiflashi.

Xavfsizlik marjasini summada va koeffitsiyentda ifodalash formulalari.

CVP tahlili jarayonida xavfsizlik marjini ko'rsatkichlaridan foydalanishni amaliy misollarda ko'rib o'tilishi. Ikkita alternativ holatning hisob-kitoblarini amalga oshirish.

Foyda rentabelligi ko'rsatkichini hisoblashning formulasi.

SVP tahlilida yo'l qo'yilishlar.

13.4-mavzu. Bahoni shakllantirish bo'yicha qaror qabul qilish

Bahoning roli va ahamiyati. Boshqaruv hisobi maqsadlarida baho tushunchasiga ta'rif. Sotib olish bahosi.

Sotish bahosi sotuvchi uchun sotilayotgan tovar, mahsulot, bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi hamda uning ustiga qo'yilgan ustamadan, ya'ni foydadan iborat bo'lishi.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar baho siyosati negizida o'tuvchi omillar: Foydani maksimallashtirish; bozorni egallash (sotuv hajmini oshirish, raqobatda yengib chiqish); barqaror rivojlanishni ta'minlash; erkin raqobat sharoitida sinish va bankrotlik holatiga tushishning oldini olish.

Bahoni shakllantirish bo'yicha to'g'ri qaror qabul qilish bevosita ta'sir qiluvchi omillar: talab va taklif; xarajatlar; raqobat.

Baholarni shakllanishiga bevosita ta'sir qiluvchi ham ichki, ham tashqi omillar.

Bahoni shakllantirishda strategiya (yondashuv): bozorga kirib borish; qaymog'ini olish; mahsulot hayotiyiligi (boshlang'ich holati, o'sish, cho'qqiga chiqish, tushish).

Sotish baholarini belgilash usullari: o'zgaruvchan xarajatlar bo'yicha tannarxni hisobga olish asosida bahoni belgilash usuli; barcha xarajatlarni to'liq hisobga olish asosida bahoni belgilash usuli; bahoni xarajatlarni maksadli hisobga olish asosida belgilash usuli; zararsizlik nuqtasi bo'yicha

bahoni belgilash usuli; rentabellik darajasi asosida bahoni belgilash usuli.
Sotish baholarini belgilash usullarining amaliy misollarda qo'llanilishi.

13.5-mavzu. Uzoq muddatli investitsiyalar bo'yicha qarorlar qabul qilish.

Kapital quyilmalar to'g'risida qarorlar mazmuni va ahamiyati. Uzoq muddatli investitsiyalar bu loyihalarga kiritilgan investitsiyalar ekanligi. Loyihalarning turlari. Loyihalarni amalga oshirish yo'nalishlari.

Uzoq muddatli investitsiyalarni baholash jarayoni.

Uzoq muddatli investitsiyalarni baholash metodlari: diskontlanmagan metodlar va diskontlangan metodlar.

Investitsiyalarni baholashning diskontlanmagan metodi mohiyati va mazmuni. Qoplash metodida qoplash davrini hisoblash. Amaliy misollar.

Uzoq muddatli investitsiyalarni baholashning diskontlangan metodi mohiyati va mazmuni. Diskontlangan pul oqimi. Investitsiyalarning kelgusidagi qiymati va keltirilgan qiymatini hisoblash tartibi va hisoblash formulalari.

Sof keltirilgan qiymat (NPV) va daromadlilikning ichki stavkasi (IRR) hisoblash tartibi va ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha xulosalar. NPV va IRR ko'rsatkichlarini solishtirish. Amaliy misollarda diskontlangan usulni qo'llash va masalaning yechimi bo'yicha xulosalar qilish va boshqaruv qarorlari loyihasini tayyorlash.

Ishchi kapitalga investitsiyalar. Yuqori texnologiyali loyihalarga investitsiyalar.

5-BO'LIM. TRANSFERT BAHO HAMDA SEGMENTAR HISOBOT MASALALARI

XIV-BOB. TRANSFERT BAHONI SHAKLLANTIRISH

14.1-mavzu. Transfert bahosining turlari va shakllantirish tamoyillari.

Transfert bahoga berilgan ta'riflar. Transfert baho - bu taqqoslash imkoni bo'lmagan tovar, ish va xizmat turlari uchun ikkita tomon, shu jumladan bir-biriga bog'liq va bo'ysinuvchi, odatda, bitta guruhga kiruvchi yuridik shaxslar o'rtasida tuziladigan individual bitimlar uchun belgilanadigan maxsus narx ekanligi. Soliq Kodeksida transfert bahoga berilgan ta'rif. Xorijiy adabiyotlarda transfert bahoga berilgan ta'riflar talqini.

Transfert bahoni qo'llash ko'lamini va ahamiyati. Jahon tajribasida transfert bahoning qo'llanilishi va uning ahamiyati. Soliq maqsadlaridagi ahamiyati.

Xorijiy davlatlar davlat soliq organlari qoshida maxsus transfert baholar nazorati boshqarmalari tomonidan guruh bitimlar nazorati amalga oshirilishi.

O'zaro bog'liq va bir-biriga bo'ysinuvchi subyektlarda transfert baholarni soliq solish nuqtai nazaridan to'g'ri foydalanilganligi tekshirish metodlari: taqqoslama bozor baholari metodi; kelgusi sotish baholari metodi; xarajatlar asosida belgilangan baholash metodi; taqqoslama rentabellik metodi; foydani taqsimlash metodi; xolis baholovchi tomonidan bahoni belgilash metodi.

Transfert baholarini hisoblash usullari: bozordagi baholarga asosan va sarflangan xarajatlarga asosan. Ushbu usullarning amaliy misollarda qo'llanilishi.

14.2-mavzu. Transfert baholarni o'rnatish uslublari

Transfert baho - bu korxona ichida bir javobgarlik markazidan boshqa javobgarlik markaziga o'tkaziladigan mahsulot (materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, tayyor mahsulotlar) yoki xizmatlar bahosini aniqlash uchun foydalaniladigan baho ekanligi. Transfert bahoni aniqlash ishlab chiqarishni tashkil etishning markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan shakllariga bog'liqligi.

